

## INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNING GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH

**Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna**

*Namangan Abu Ali Ibn Sino jamoat salomatligi texnikumida "Klinik fanlar o'qituvchisi.  
Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti, Namangan filiali 1- bosqich magistri*

**Annotatsiya:** maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutq rivoji, ularning ijtimoiy va emosional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Inkluziv ta'lim esa har bir bolaga, shu jumladan, nutq va til rivojida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalarga ham o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam beradi. Inkluziv ta'lim esa har bir bolaga, shu jumladan, nutq va til rivojida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalarga ham o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** inkluziv ta'lim, nutq rivoji, ta'lim metodikasi, o'qitish strategiyalari, ta'lim metodikasi, individual yondashuv, maktabgacha yosh, ijtimoiy ko'nikmalar, ta'lim muhitini yaratish, nutq qiyinchiliklari.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang'ich ta'limda o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta'lim standartlari me'yorlari inobatga olingan o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi. Bola sabab-oqibatli aloqalar, vaqtbay, muhit va boshqa aloqalarni anglash bilan bir vaqtning o'zida ularni grammatik shakllarda va qurilmalarda ifodalash usullarini o'zlashtiradi. 5-6 yoshda allaqachon bolalar bilan unli va undosh tovush nima ekanligini aniqlash kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish katta hajmli tushunchadir. Grammatik mazmunga ega bo'lgan dialogik o'yinlar, mashqlar va muammoli vaziyatlar - bolalar nutqining grammatik jihatdan to'g'riligini, ularning grammatik shakllar sohasidagi qidiruv faolligini rivojlantirishning zarur shartlari hisoblanadi. Shuningdek, bolalar nutqidagi qator

grammatik xatoliklarning mavjudligi bolalarning o'zlari qo'llayotgan grammatik shakllar ma'nosini tushinishlari, ammo hali ularni nutqda qanday qilib qo'llashni esda saqlab qolmaganliklari - ya'ni, nutqiy me'yorlarni o'zlashtirib olmaganliklaridan dalolat beradi. Bolalar «o'z» so'zlarini o'zlari o'zlashtirib ulgurgan so'zlariga o'xshatib hosil qiladilar. Bunga hayotdan misollarni juda ko'plab keltirish mumkin: chunki, normal rivojlanayotgan har qanday bola o'z so'zlarini «ijod qiladi». Grammatika deganda, biz nutqiy faoliyat natijalarini tavsiflash va tartibga solish uchun lingvistlar tomonidan o'ylab topilgan qoidalar majmuini emas, balki fikr bildirishni vujudga keltirish va boshqalarning bildirgan fikrlarini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlar umumiyligini tushunamiz. Grammatikani tadqiq qilish nafaqat shunchaki qiziqarli lingvistik maqsadlar uchun zarur, balki u umuman fikrlash va bilish jarayonlarini keng tadqiq qilish uchun ham zarur qismidir. Olimlar ko'plab tadqiqotlardan kelib chiqqan holda til tarkibini bilish tug'ma qobiliyat emas, balki til rivojlanishi jarayonida bola qoidaga o'xshash narsalarni o'zlashtirib oladi va ular yordamida o'zining cheklangan tajribasini son-sanoqsiz gaplar tuzish hamda ularni tushunish darajasiga kengaytiradi, degan fikrlarni bildirmoqdalar. Bugungi kunda lingvistikaning vazifalaridan biri - ushbu qobiliyat tabiatini va mexanizmini tushunishdan iboratdir. Bola to'g'ri so'z hosil qilishga intilgani holda doimo o'z nutqini tuzatib borishga harakat qiladi. Bola o'z fikr bildirishlarining sintaksisini ham aynan shu tarzda to'g'rilaydi. Uch yoshgacha bolaning lug'ati «turli» so'zlar hisobiga ortib boradi. Uch yoshdan keyin so'z yasovchi daraja etakchi darajaga aylanadi. Bolaning faoliyat ko'rsatish va muloqot sohasi jadal kengayib boradi va uni tavsiflash uchun leksik vositalar yetmaydi: bola so'z yasashga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Agarda yangi hodisani ifodalash uchun ma'lum birlik mavjud bo'lmasa, bu holda mazkur birlik «ixtiro qilinadi», ammo aslida u yangidan emas, balki bola til tizimining so'z yasash darajasini tashkil qiluvchi ma'lum qoidalar asosida shakllantiriladi. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi. O'sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir. Bolalarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi)-bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo'lishi bilan tadrijiy rivojlanib boradigan bu nozik sohada professional yondashuvni talab qiladigan sarmashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashuvida nogironligi bo'lgan bolalar bo'yicha idoralararo muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va

muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bimalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi. Hozirgi pedagoglar, psixologlar, lingvistlar ilk bo'g'in – maktabgacha ta'limda bolaning ravon bog'lanishli nutqini o'stirish zarurligini ta'kidlaydilar, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uning og'zaki nutqi rivojlanganligi hamda umumiy rivojlanganligi bilan bog'liq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar lug'at boyligini ilmiy - metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular maktabga kirish vaqtida amalda tilning grammatik va sintaktik shakllari tizimini egallagan bo'lishlariga qaramay, ularning nutqi yetuk bo'lmaydi. Bola lug'at zahirasiining kambag'alligi faqatgina uning faol nutqida ko'pgina leksik - grammatik kategoriyalar yo'qligidan emas, balki so'zlarni noto'g'ri qo'llash, ularning turli ma'nolarini hamda ko'chma ma'nolarini noto'g'ri tushunishdan iborat. Bolalarning nutq madaniyati rivojlanishidagi kamchiliklar, ko'p jihatdan cheklanib qoladilar. Axir, o'tkir so'zlar, matallar, hazil - mutoyibalar, qiziqchilik, qo'shiq, ertakdagi yorqin obraz, qiziqarli topishmoq bolalar bog'lanishli nutqini boyitadi, tafakkurini, she'rlar tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, ona tiliga, keyinroq esa o'rganilayotgan tilga muhabbatni, uning go'zalligini his qilish qobiliyatini tarbiyalaydi. Tarbiyachilar yirik folklorshunoslar M.Alaviya, M.I.Afzalov, Z.Xusainova T.Mirzayev va boshqalar tomonidan to'plangan materiallardan foydalanish imkoniyatiga ega. Masala faqat shundaki, ushbu to'plamlardan eng yaxshilarini va bolalar tushunishi osonlarini ajratish lozim. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bolaning so'z-lug'at boyligining o'sishida ikki muhim tomoni miqdor va sifat tomoni mavjud. Bolalar to'g'ri tarbiyalanib borganlarida, ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshiga yetganlarida, ularda tilning grammatika shakllarini amaliy ravishda egallash juda tez qadam bilan olg'a qarab boradi. Shu yoshda bolalar murakkab gap sintaksisini ham egallab oladilar. Bolaning nutqida bir-biri bilan bog'langan qo'shma gaplar paydo bo'ladi. Bolalarning nutqda sodda gap, bosh gap, ergash gap va hokazolar aniq ko'rinishda boshlaydi. Ularning nutqlarida murakkab gaplar ishlatiladi. Bu gaplarda biror sabab, maqsad, xulosa, izoh, shart va shu kabilar aks ettirila boshlaydi. Nutqning tuzilishidagi bu murakkab shakllar tafakkurning murakkabroq shakllari o'sib borishiga bog'liqdir.

Nutqning grammatik tuzilishi — bu so'zlarning bir-biriga bog'lanishi, jumlar hosil qilish va mantiqiy fikrlarni ifodalash jarayonidir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun grammatik qoidalarni o'rganish va ulardan foydalanish muhimdir, chunki bu ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijtimoiy muloqotga tayyorlaydi. Inklyuziv ta'lim sharoitida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojini ta'minlash uchun



quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olish zarur. Har bir bola o'ziga xos rivojlanish sur'atiga ega. O'qituvchi bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishi kerak. O'yinlar bolalarning diqqatini jalb qiladi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. O'yinlar orqali grammatik qoidalarni o'rganish jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi. Bolalar o'zaro muloqotda bo'lishi, bir-biridan o'rganishi va o'z fikrlarini ifoda etishi uchun qulay muhit yaratish zarur. Bu ularning nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ota-onalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi bolalarning nutq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular uyda bolalar bilan muloqot qilish, o'yinlar o'ynash va kitoblar o'qish orqali yordam berishi mumkin. Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo'llanilishi. Rasmi kartochkalar, plakatlari va boshqa vizual materiallar yordamida bolalarga yangi so'zlarni va grammatik tuzilmalarni tanishtirish. "Kim nima qiladi?", "So'zlar zanjiri" kabi o'yinlar orqali bolalar orasida muloqotni rag'batlantirish. Bolalarga hikoyalar yozish yoki rasm chizish orqali o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini berish. Oddiy grammatik mashqlarni bajarish orqali bolalarga qoidalarni o'rganishga yordam berish. Inkluziv ta'lim sharoitida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish — bu murakkab, lekin muhim jarayondir. O'qituvchilar va ota-onalar birgalikda ishlagan holda, bolalarning nutq rivojini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Ushbu jarayon davomida individual yondashuv, o'yin orqali o'qitish va ijtimoiy muloqotni rag'batlantirish muhim rol o'ynaydi. Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish orqali bolalar nafaqat o'z fikrlarini ifoda eta olishadi, balki ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli Qarori.
2. Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021
3. Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.
4. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda intyerfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son. -14 b.
5. Soliev I. S. Factors of formation of information competence of future primary school teachers //Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 218-220.
6. <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/download/11441/8185/8246>

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

7. <https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.pdf>
8. <https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.pdf>
9. <https://presedu.jdpu.uz/index.php/presedu/article/download/4430/2986/10850>

